

HAQ EVAZIGA XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI

"BEST KINDNESS" MChJ, keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi. O'zining nizomi asosida ish yurituvchi J.Z.Axmedov nomidan, bir tomondan va Kattaqo'rg'on shahar Axoli bandligiga ko'maklashish markazi, keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, o'zining Nizomi asosida ish yurituvchi F.Kurbanov nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Bajaruvchi" Buyurtmachiga Kattaqo'rg'on shahar Axoli bandligiga ko'maklashish markazi yangi binosiga harflarda markaz nomini yasab o'rnatib berish, Xar xil Bannerlar yozib o'rnatish, viviska, Xar xil jadvallar va tablechkalar yasab o'rnatib berish keyingi o'rinlarda - "Xizmatlar" deb yuritiladi) xizmat ko'rsatish, "Buyurtmachi" ushbu "Xizmatlar"ni qabul qilish va qiymatini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.2. Shartnomaning umumiy summasi 14950000(Un turt million to'qqiz yuz ellik ming) so'm deb belgilandi. Bajariladigan ishlar (xizmatlar) uchun oldindan tulov miqdori 30 % ni tashkil qiladi.

1.3. "Xizmatlar"ning aniq turlari, ularning soni, sifati va narxi, shuningdek ularni ko'rsatish muddatlari mazkur shartnomaning tarkibiy qismi hisoblangan ilovada keltiriladi.

II. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. "Buyurtmachi" ning huquqlari:

2.1.1. "Bajaruvchi"dan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

2.1.2. "Bajaruvchi"dan "Xizmatlar" "Buyurtmachi" ning hisobiga transportda tashilganda transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;

2.1.3. "Bajaruvchi"dan mazkur shartnomaga muvofiq beriladigan ko'rsatilishini buyurtmanomaga muvofiq tegishli sifatga ega bo'lgan "Xizmatlar" ko'rsatilishini talab qilish;

2.1.4. zarur sifatga ega bo'lmagan "Xizmatlar" ko'rsatilgan taqdirda o'z tanlashiga ko'ra:

- zarur sifatga ega bo'lmagan "Xizmatlar" shunga o'xshash "Xizmatlar" bilan almashtirilishini;

- "Xizmatlar"ning kamchiliklari bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklar "Buyurtmachi" yoxud uchinchi shaxslar tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplashni;

- bahosining mutanosib tarzda kamaytirilishini talab qilish;

2.1.5. Shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini "Bajaruvchi"dan talab qilish.

2.2. "Buyurtmachi"ning majburiyatlari:

2.2.1. «Xizmatlar»ni 2022 yilda byudjetdan ajratilgan mablag'lar doirasida "Bajaruvchi" bilan shartnoma tuzish;

2.2.2. O'z buyurtmanomasi bo'yicha ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;

2.2.3. «Xizmatlar»ga mazkur shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan narx bo'yicha, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab, g'aznachilik bulimidan ro'yxatidan o'tkazgandan so'ng 10 kun mobaynida haq to'lash.

2.3. «Bajaruvchi» quyidagi huquqlarga ega:

2.3.1. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun oldindan haq to'lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzil-kesil hisob qilinishini "Buyurtmachi"dan talab qilish;

2.3.2. Berilgan buyurtmanomaga muvofiq ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini "Buyurtmachi"dan talab qilish.

2.4. «Bajaruvchi» quyidagilarga majbur:

2.4.1. «Buyurtmachi» bilan tuzgan shartnomasi G'aznachilik bulimidan ruyxatdan o'tkazilgandan so'ng "Xizmatlar"ni ko'rsatish;

2.4.2. "Buyurtmachi"ga "Xizmatlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi" tomonidan mazkur shartnomaning 4.8-bandida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning buyurtmanomasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda ko'rsatish;

2.4.3. Agar "Xizmatlar"ni ko'rsatish jarayonida "Bajaruvchi" shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo'l qo'ygan bo'lsa, "Buyurtmachi"ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni 5 kun muddatda tekin tuzatib berish.

III. SHARTNOMANING BAHOSI VA HISOB-KITOB TARTIBI

3.1. Mazkur shartnomaning bahosi 14950000(Un turt million to'qqiz yuz ellik ming) so'mni tashkil etadi. Ko'rsatiladigan "Xizmatlar"ning bahosi mazkur shartnomaga ilovada ko'rsatilgan.

3.2. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun pul ko'chirish yo'li bilan naqd pulsiz tartibda hisob-kitob qilinadi.

IV. SHARTNOMANING BAJARILISHI

4.1. Shartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmalariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarda belgilangan hollar bundan mustasno.

4.3. "Xizmatlar" qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi. "Buyurtma"chining Hisob-kitob hujjatida g'aznachilik bo'linmalarining shtampida ko'rsatilgan sana "Xizmatlar"ga haq to'lash bo'yicha "Buyurtmachi" majburiyatlari bajarilgan sana hisoblanadi.

4.4. "Buyurtmachi" muddatlar buzilgan holda ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni qabul qilishni rad etishga haqlidir.

4.5. Nazarda tutilgan miqdordan ortiqcha bir nomda "Xizmatlar" ko'rsatilishi ushbu assortimentga kiruvchi boshqa nomdagi ko'rsatilmagan "Xizmatlar" o'rnini to'ldirish sifatida qaralmaydi va ko'rsatilmagan "Xizmatlar"ning o'rni to'ldirilishi kerak, bunday "Xizmatlar" "Buyurtmachi"ning oldindan berilgan yozma roziligi bo'yicha ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

4.6. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" bevosita "Buyurtmachi"ning mas'ul xodimi tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada ko'rsatilgan "Xizmatlar" miqdori, ularning sifati ko'rsatiladi.

4.7. Shartnomada nazarda tutilgan "Xizmatlar" ko'rsatilishi mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi"ning buyurtmanomasi ko'rsatilgan muddatlar va hajmda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda "Bajaruvchi" Buyurtmachilarning buyurtmanomalarini ro'yxatdan o'tkazish daftarini yuritadi.

4.8. "Buyurtmachi" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud "Xizmatlar"ning tegishli qismlarini ko'rsatish sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqda "Bajaruvchi"ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 1 kun oldin xabardor qiladi.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Ko'rsatilayotgan "Xizmatlar" sifati, miqdori "Bajaruvchi" tomonidan noto'g'ri aniqlanishi, ularning qiymati noto'g'ri belgilanishi va undirilishi hollari aniqlangan taqdirda "Bajaruvchi" ko'rsatilayotgan "Xizmatlar"ning sifatini, shuningdek ularning miqdorini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qiladi, hisoblab chiqilgan ushbu summadan tashqari buyurtmachiga noto'g'ri hisob-kitob qilingan summaning 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.2. Agar ko'rsatilgan "Xizmatlar"ning sifati, assortimenti, navlari standart, texnik shartlar talablariga, namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor tomon ko'rsatilgan, sifati zarur darajada bo'lmagan "Xizmatlar" qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.3. "Xizmatlar" ko'rsatish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga belgilangan ustamalardan tashqari ko'rsatilishi kerak bo'lgan "Xizmatlar"ning 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarimadan tashqari, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga "Xizmatlar" ko'rsatilmaligi natijasida yetkazilgan zararni to'laydi.

5.4. Xizmatlar ko'rsatish kechiktirilgan yoki to'liq ko'rsatilmagan taqdirda "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan "Xizmatlar" qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda

bajarishdan va "Xizmatlar" ko'rsatish muddati kechiktirilishi yoki to'liq ko'rsatilmasligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidan ozod etmaydi.

5.5. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun o'z vaqtida haq to'lanmaganda "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida maxsus hisobraqamidan penya to'laydi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

5.6. "Buyurtmachi" tomonidan tegishli kontraktatsiya shartnomasi bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun "Buyurtmachi"ni javobgarlikka tortishda shuningdek uning xatti-harakatlari (harakatsizligi) "Buyurtmachi" tomonidan kontraktatsiya shartnomasi bo'yicha shartnoma majburiyatlari bajarilmasligiga (zarur tarzda bajarilmasligiga) olib kelgan "Bajaruvchi"ning javobgarligi ham ko'rib chiqiladi. "Bajaruvchi"ning aybi bilan kontraktatsiya shartnomasining "Buyurtmachi" tomonidan bajarilmasligi (zarur tarzda bajarilmasligi) natijasida yetkazilgan zarar belgilangan tartibda "Bajaruvchi" tomonidan qoplanadi.

5.7. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

5.8. Nazorat organlari tomonidan utkazilgan tekshirish davomida bajarilgan ishlar va tovar maxsulotlar narxi yukori deb topilgan takdirda urtadagi fark tovar yetkazib beruvchi tomonidan koplanadi.

VI. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralari ko'radilar.

6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

VII. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

7.1. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda to'xtatiladi.

7.2 Shartnomani taraflarning uzaro kelishuviga asosan yoki Uzbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksiga xamda amaldagi konun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni tulagan xolda muddatidan ilgari bekor kilishi mumkin.

7.3 Mazkur 14950000(Un turt million to'qqiz yuz ellik ming) so'mlik, 47-sonli shartnoma « 30 » noyabrda 2 nusxada tuzilgan bo'lib 2022 yil «30» noyabrdan 2022 yil «31» Dekabrgacha amal qiladi. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, g'aznachilik bo'limidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi

VIII. YAKUNIY QOIDALAR

8.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

8.2. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

8.3. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri uchun bir nusxadan ikki nusxada tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

8.4. Mazkur shartnoma, unga o'zgartirishlar (qo'shimchalar ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.)

IX. KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR

9.1. "Iste'molchi" "Etkazib beruvchi"ga mazkur shartnoma doirasida qo'yidagilarni kafolatlaydi va qo'yidagi majburiyatlarni xam o'z zimmasiga oladi: Shartnomaning amal qilish muddati davomida u (shuningdek, uning xodimlari, direktorlari, agentlari va boshqa vakillari), iste'molchi manfaatlari uchun agent yoki vakil sifatida harakat qilib, "Etkazib beruvchi"ning korrupsiya qarshi amaldagi talablariga va O'zbekistan Respublikasiing barcha qonun va qoidalariga kat'iy rioya kiladi.

9.2. Ushbu shartnomaning har bir taraflari bir-biriga nisbatan amaldagi korrupsiyaga qarshi kurash talablari, shu jumladan, bu bilan cheklanib qolmasdan, barcha amaldagi konun va qoidalarga oid shartlarni va talablarni tadbiq etilishini ifodalaydi va kafolatlaydi

9.3. Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti-harakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

IX. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

"BEST KINDNESS" MChJ

Kattaqo'rg'on shahar Axoli bandligiga ko'maklashish markazi

Manzil: Kattaqo'rg'on shahar Samarqand ko'chasi
Tel.: +99893 327 11 11
x/v: 20208000400685677001
Bank nomi: Milliybank ATB Samarqand v.f.

Manzil: M.Xorazmiy ko'chasi-9 uy
Tel./faks 455-31-27
sh/x*100022860184067109120141001
Inn: 200722117 OKONX 97600
MFO 00014

MFO 00278 INN 304395867
OKED

G'azna x/r 23402000300100001010

Raxbar: J.Z.Axmedov
(imzo)

Moliya Vazirligi'g' aznachiligi
ABKM direktori
(imzo)

R.M.Muratkasimov

	Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	RUSTAMBEK MURATKASIMOV MUSTAFAYEVICH
	Imzolangan sana	30.11.2022 17:25
	Hujjat kodi	DN6588227066
	Hulosa kodi	BK1751166164

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

BK1751166164

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: **BEST KINDNESS MChJ shartnoma**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: KATTAQO'RG'ON
SHAHAR BANDLIKKA KO'MAKLASHISH MARKAZI tomonidan 30.11.2022 yilda
kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish
maqsadga muvofiq.

Kattaqo'rg'on shaxar
yuridik markazi
markaz rahbari:



Z.U.ABDURAXIMOV

30.11.2022

Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 191762 на приобретение Каттакургон шахар АБКМ га баннер хар хил ёзувлар, шиорлар, табличкалар ва вывискалар ясаб урнатиб бериш хизмати

Способ проведения электронный

Дата 24.11.2022

Время рассмотрения 24.11.2022 20:21

Закупочная комиссия Каттакургон шахар Бандликка кумаклашувчи марказ, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	ALLAYOROV DILSHOD NURMURODOVICH	yurist	komissiya raisi
Секретарь комиссии	TASHPULATOVA FOTIMA IRKINOVNA	mehnat inspektor	komissiya azosi
Член комиссии	ELMURADOV SAN'ATJON IBROGIMOVICH	shuba boshlig'i	komissiya azosi
Член комиссии	OCHILOV ZOHIDJON OLIMOVICH	mehnat inspektori	komissiya azosi
Член комиссии	KUDRATOV XUSAN NORKULOVICH	bosh hisobchi	komissiya azosi
Член комиссии	XUDAYBERDIYEV SHODIYOR AKRAMOVICH	xujalik mudiri	komissiya azosi

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 24.11.2022 года № лота 191762.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 40

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по установке баннера
Подробное описание	Каттакургон шахар АБКМ га баннер хар хил ёзувлар, шиорлар, табличкалар ва вывискалар ясаб урнатиб бериш хизмати
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	15 000 000.00
Стартовая сумма	15 000 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Банк қарздорлиги мавжуд эмаслиги, қўшилган қиймат солиғи тўловчиси бўлса, унинг гувоҳномаси фаоллиги. Солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича муддати ўтган қарздорликнинг мавжуд эмаслиги. Эълон жараёнида бўлган давр ҳолатига солиқ қарздорлиги мавжуд эмаслиги тўғрисидаги repository.soliq.uz дастуридан олинган штрих кодли маълумот ва инсофсиз иштирокчилар рўйхатида бор-йўқлиги тўғрисида маълумот тақдим қилиши;

Тип: Текстовое значение

Описание: илова килинган хужжатлар танлов тугаш вақтига мос ва пдф тасдиқланган светной булиши лозим, ушбу хужжатлар хакикийлигига етказиб берувчи жавобгар, сохталаштирилган ва нотугри хужжатлар бриктирилмаслик лозим

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
AGRO TAYYORLOV INVEST MCHJ	15	маълумотнома	10	Экспертная		
BEST KINDNESS MCHJ	15	15	15	Экспертная		

Критерий №2 корхона хакида тулик маълумот, хужжатлари

Тип: Текстовое значение

Описание: илова килинган хужжатлар танлов тугаш вақтига мос ва пдф тасдиқланган светной булиши лозим, ушбу хужжатлар хакикийлигига етказиб берувчи жавобгар, сохталаштирилган ва нотугри хужжатлар бриктирилмаслик лозим

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
AGRO TAYYORLOV INVEST MCHJ	10	маълумотнома	5	Экспертная		
BEST KINDNESS MCHJ	10	10	10	Экспертная		

Критерий №3 Ишчи ходимлар тўғрисида маълумот шу корхонада ишлаган(Ф.И.Ш паспорт, my.mexnat.uzдан меҳнат дафтарча электрон ва буйруқ нусхалари, my.soliq.uz дан даромад солиги иловалари)

Тип: Текстовое значение

Описание: илова килинган хужжатлар танлов тугаш вақтига мос ва пдф тасдиқланган светной булиши лозим, ушбу хужжатлар хакикийлигига етказиб берувчи жавобгар, сохталаштирилган ва нотугри хужжатлар бриктирилмаслик лозим

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
AGRO TAYYORLOV INVEST MCHJ	20	маълумотнома	10	Экспертная		
BEST KINDNESS MCHJ	20	20	15	Экспертная		

Критерий №4 корхона гувоҳномаси раҳбарнинг буйруғидан кўчирма, my.mexnat.uzдан меҳнат дафтарча электрон б-н бирга раҳбарнинг паспорт нусхасини тақдим қилиши

Тип: Текстовое значение

Описание: илова килинган хужжатлар танлов тугаш вақтига мос ва пдф тасдиқланган светной булиши лозим, ушбу хужжатлар хакикийлигига етказиб берувчи жавобгар, сохталаштирилган ва нотугри хужжатлар бриктирилмаслик лозим

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
AGRO TAYYORLOV INVEST MCHJ	15	маълумотнома	10	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
BEST KINDNESS МЧЖ	15	15	15	Экспертная		

Критерий №5 Ушбу турдаги хизматларнинг параметрлари, сифати, расмлари ва етказиб бериш муддати тўғрисидаги тасдиқланган маълумот. Кафолат муддати 2 йил

Тип: Текстовое значение

Описание: илова килинган хужжатлар танлов тугаш вақтига мос ва пдф тасдиқланган светной булиши лозим, ушбу хужжатлар хакикийлигига етказиб берувчи жавобгар, сохталаштирилган ва нотугри хужжатлар бриктирилмаслик лозим

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
AGRO TAYYORLOV INVEST MCHJ	30	маълумотнома	10	Экспертная		
BEST KINDNESS МЧЖ	30	30	25	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
BEST KINDNESS МЧЖ	15 000 000.00	14 950 000.00 UZS	14 950 000.00	00.00	14 950 000.00	24.11.2022 15:52:53	10
AGRO TAYYORLOV INVEST MCHJ	15 000 000.00	14 990 000.00 UZS	14 990 000.00	00.00	14 990 000.00	24.11.2022 13:02:29	9.97332

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
BEST KINDNESS МЧЖ	80.0001	10	90.0001
AGRO TAYYORLOV INVEST MCHJ	45	9.97332	54.97332

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 191762 от 24.11.2022 года на приобретение Каттакуртон сахар АБКМ га баннер хар хил ёзувлар, шиорлар, таблечкалар ва вывискалар ясаб урнатиб бериш хизмати определила победителем:

BEST KINDNESS МЧЖ
304395867

и резервный исполнитель: AGRO TAYYORLOV INVEST MCHJ (304383218)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	ALLAYOROV DILSHOD NURMURODOVICH	Согласен	
Член комиссии	ELMURADOV SAN'ATJON IBROGIMOVICH	Согласен	
Член комиссии	OCHILOV ZOHIDJON OLIMOVICH	Согласен	
Член комиссии	KUDRATOV XUSAN NORKULOVICH	Согласен	
Член комиссии	XUDAYBERDIYEV SHODIYOR AKRAMOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahar
hokimligi huzuridagi tadbirkorlik sub'ektlariga yagona darcha tamoyili
bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish
YAGONA DARCHA MARKAZI

Yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida
GUVOHNOMA

Reestrda tartib raqami 367

№ 358

"28" oktyabr 2016 vil

Mazkur guvohnoma yuridik shaxs "BEST KINDNESS" mas'uliyati cheklangan jamiatiga Kattaqo'rg'on shahar hokimligi huzuridagi tadbirkorlik sub'ektlariga yagona darcha tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish "YAGONA DARCHA" markazi tomonidan berilgan.

THSH

1. Tashkiliy huquqiy shakli

152

MShT

2. Mulkchilik shakli

142

MXOBT

3. Pochta manzili

1718406

KTUT

4. Yuridik shaxs kodi

26644367

XXTUT

5. Tarmoq kodi

19220

STIR

6. Soliq to'lovchining
identifikatsion raqami

304395867

Qo'shimcha ma'lumotlar:


Markaz direktori
M.O.



RO'YXATDAN O'TDI







«Ягона миллий меҳнат
tizими» идоралараро
дастурий-аппарат комплекси

МЕҲНАТ
ДАФТАРЧАСИДАН
КЎЧИРМА

Хужжат рақами: 4715054939
Берилган сана: 23.11.2022



AXMEDOV

JASUR

ZAYNIDINOVICH

Паспорт рақами: AA2496358
ЖШШИР: 32307884070020

СТИР: 496458319

Туғилган санаси: 23.07.1988

Яшаш жойи: МИРАБАДСКИЙ РАЙОН ФИТРАТ
ЯНГИЗАМОН Д.24\3 КВ.8

Маълумотномада кўрсатилган маълумотлар
тўғрилигини текшириш учун мобил телефон
ёрдамида QR-кодни сканер қилинг



<https://my.mehnat.uz/check>

МЕҲНАТ ФАОЛИЯТИ

№	Сана	Лавозим	Бўлим	Ташкилот
1	31.10.2016 - ҳ.в.	Директор	админ	"BEST KINDNESS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
2	01.04.2017 - ҳ.в.	Диспетчер	Бўлинма мавжуд эмас	"KATTAQURG'ON-TEK" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT



Меҳнат соҳасидаги
лойиҳаларни бошқариш
маркази

Ушбу хужжат Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 31 октябрдаги ПҚ-4502-сон қарорига мовофиқ жорий этилган «Ягона миллий меҳнат тизими» идоралараро дастурий-аппарат комплексида шакллантирилган маълумотлар асосида чоп этилган.

«Ягона миллий меҳнат тизими» идоралараро дастурий-аппарат комплексини қўллаб-қувватлаш call-маркази - +99871 200 7030

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ДАВЛАТ СОЛИҚ ҚЎМИТАСИ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ НАЛОГОВЫЙ КОМИТЕТ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Солиқ тўловчининг Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитасида рўйхатга
олинганлиги ва унга идентификация рақами берилганлиги тўғрисида
ГУВОҲНОМА

УДОСТОВЕРЕНИЕ

о регистрации в Государственном налоговом комитете Республики Узбекистан
и присвоении идентификационного номера налогоплательщику

СОЛИҚ ТЎЛОВЧИ - ЮРИДИК ШАХС
НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИК - ЮРИДИЧЕСКОЕ ЛИЦО

Тўлиқ номи:
Полное наименование:

"BEST KINDNESS" МАСЪУЛИЯТИ
ЧЕКЛАНГАН ЖАМИЯТИ

Кискача номи:
Краткое наименование:

"BEST KINDNESS" МЧЖ

Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитасида рўйхатга олинди ва унга қуйидаги
солиқ тўловчи идентификация рақами (СТИР) берилди:

Зарегистрирован в Государственном налоговом комитете Республики Узбекистан
и ему присвоен идентификационный номер налогоплательщика (ИНН):

304395867

СТИР берилган сана: 28.10.2016
Дата присвоения ИНН:

Рўйхатга олинган ДСИ:
Зарегистрирован в ГНИ:

Каттакўрғон шаҳар

Ушбу Гувоҳнома Давлат солиқ қўмитасининг интернетдаги расмий сайти
орқали шакллантирилган ва чоп этилган

Данное Удостоверение сформировано и распечатано через официальный сайт
Государственного налогового комитета

Гувоҳнома чоп этилган сана:
Дата распечатки удостоверения:

23.11.2022 19:10:58